

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 5



IMFAKTOR
PAGES

MAY | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

1-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-1, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-1, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-5>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарлов Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Қишлоқ хўжалиги фанлари

XUSANOV Anvarxon Komolxonovich

*Namangan davlat universiteti
talabasi*

QORIYEV Mirzohid Rustamjonovich

*Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7984579>*

HOSILDORLIGI PAST BO'LGAN ESKI TOKZORLARNI YOSHARTIRISH AGROTEKNOLOGIYASI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qarib, kam hosil berayotgan tokzorlarni yoshartirishning o'ziga xos agroteknologiyasi haqida malumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu agroteknologiya bo'yicha Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanida olib borilgan tajriba natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: qarigan va samarasiz uzum bog'lari, uzum bog'larini yoshartirish agroteknologiyasi.

Khusanov Anvarkhan Komolkhonovich

*Namangan State University
student*

KORIEV Mirzohid Rustamzhonovich

*Senior lecturer, Namangan State University
Doctor of philosophy in geography (PhD)*

AGROTECHNOLOGY OF REJUVENATION OF OLD VINEYARDS WITH LOW YIELDS

ANNOTATION

This article provides information about a unique agricultural technology for rejuvenating old and low-yielding vineyards. The results of the experiment conducted in the Yangikurgan district of the Namangan region on this agricultural technique are also presented.

Keywords: aging and unproductive vineyards, agricultural rejuvenation of vineyards.

ХУСАНОВ Анвархон Комолханович
Наманганский государственный университет
студент

КОРИЕВ Мирзохид Рустамжонович
Старший преподаватель Наманганского государственного университета
Доктор философии (PhD) по географическим наукам

АГРОТЕХНОЛОГИЯ ОМОЛОЖЕНИЯ СТАРЫХ ВИНОГРАДНИКОВ С НИЗКОЙ УРОЖАЙНОСТЬЮ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об уникальной агротехнологии омоложения старых и малоурожайных виноградников. Также представлены результаты опыта, проведенного в Янгикурганском районе Наманганской области по данной агротехнике.

Ключевые слова: стареющие и непродуктивные виноградники, агротехника омоложения виноградников.

Uzumchilik O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, asosiy maqsadi, qayta ishlash sanoatiga yuqori sifatli xom-ashyo yetishtirish, shuningdek, yil davomida aholini a‘lo sifatli uzum mahsuloti bilan ta‘minlashdir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun iqtisodiy samarasiz, kam hosilli qarigan tokzorlarni yoshartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 28-iyuldagi “Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5200-son Qarorida har yili Respublika hududlarida mavjud bo‘lgan 90 ming gektar tokzorlarni konturlar kesimida xatlovdan o‘tkazib, iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlarni yangilash yoki boshqa haydaladigan ekin yerlari toifasiga o‘tkazish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish belgilangan. Bundan tashqari, 2021-2024-yillarda Respublika bo‘yicha jami 156 945 gektar maydonda yangi uzum plantatsiyalarini tashkil etish rejalashtirilgan [1].

Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish, albatta, fermer va tokzorlar egalarining tajribasiga, shuningdek, ularning bugungi ilg‘or texnologiyalardan boxabarligiga bog‘liq.

Kam hosilli, eskirgan tokzorlarni qayta tiklash sanoat tokzorlarini kengaytirish maqsadida hosildor tokni ko‘chirib o‘tkazish, kompleks mexanizatsiya va ilg‘or texnologiyani qo‘llash imkoniyatini yaratish, tuplarga shakl berish va qator oralari kengligini o‘zgartirish, kam hosilli navlarni istiqbolli navlar bilan almashtirish, suv ta‘minotini yaxshilash uchun qatorlar yo‘nalishini o‘zgartirishni ko‘zda tutadi [2].

Tok boshqa madaniy o‘simliklar qatori jinsiy (urug‘idan) hamda vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi. Urug‘idan ko‘paytirish, asosan, seleksiya ishlarida qo‘llaniladi. Amaliyotda vegetativ yo‘l bilan qalamchasidan, yashil qalamchasidan, payvandlab, parxishlab ko‘paytiriladi [3].

Bugungi kunda tokni parxishlab ko‘paytirish, asosan, honadon tomorqalarida qo‘llaniladi. Dala sharoitida bu usuldan foydalanish kam rivojlangan. Shunga qaramay parxishlab ko‘paytirishning ijobiy tomonlari ko‘p bo‘lib, uni yanada samarali usullarini ishlab chiqish katta iqtisodiy samara berishi mumkin. Mazkur maqolada mana shu masala yuzasidan olib borilgan izlanish natijalari yoritilgan.

Tokni parxishlab ko‘paytirishda uning zang, madang, yashil va yarim yashil qismlaridan foydalaniladi. Parxishlashning tik, yotiq, yer usti kabi usullari bor [3].

Tokni parxishlab ko‘paytirish usulidan kam hosilli, eskirgan tokzorlarni qayta tiklashda foydalanish yuqori samara berishi mumkin. Chunki mazkur usul orqali ham tokzorlarni qayta tiklash, ya‘ni yoshartirish, ham tokzordan olinadigan yalpi uzum hosilini kamaytirmaslik imkoniyati mavjud.

Izlanish natijalariga ko‘ra vertikal shpaller usulidagi bog‘larda parxesh qilishning yangicha usulidan foydalanib 3 yil davomida tok ko‘chatlarini butunlay yangilab, yoshartirish mumkin. Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin.

Odatda bog‘larni qator oralari 3-3,5 metr atrofida bo‘ladi. Kuz yoki bahor faslida tokni kesishdan avval eng yaxshi rivojlangan ko‘p yillik, o‘rtacha yo‘g‘onlashgan hosildor novdalar tanlab olinadi (ular uzunligi uchun odatda kesib yuboriladi). Mana shunday novdalar har bir tupdan bittadan yoki holatiga qarab ikkitadan tanlab olinib, ularni tokzor qatorining o‘rtasiga, ya‘ni 1,5-1,7 metr masofaga, chuqurligi 35-40 sm, kengligi 20-30sm qilib kovlangan chuqurlarga ko‘miladi. Yer yuzasidan ko‘tarilib chiqqan novdadan 4-5 ta kurtak qoldirib, qolgan qismi kesib qo‘yiladi. Bu ishni qatorning boshidan oxirigacha amalga oshiriladi.

Mazkur jarayon, dastlabki yili qator oralatib amalga oshiriladi. Shunda tokzorning 50% qismini yoshartirishga erishiladi. Ushbu nihollar shu yiliyoq hosil berishni boshlaydi (1-rasm). Chunki yangi yerga tezda moslashib, baquvvat ildiz otadi, asosiy ildizdan ham oziqlanishi davom etadi. Eski toklar ham o‘z o‘rnida turadi va ulardan ham 2 yoki 3 yil davomida hosil olib turiladi (2-rasm). Parxishlangan yangi tok ko‘chatlari yiriklashib, to‘laqonli hosilga kiringach eski tok ko‘chatlari chiqarib tashlanadi.

Tokni parxishlab ko‘paytirish agrotexnologiyasining o‘ziga xos usulini qo‘llash orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

1. Hosildorlik o‘rtacha 30-35% gacha ortadi
2. Hosilning sifati, eksportboplik xususiyati sezilarli darajada oshadi.
3. Yangi tokzorlar eng serhosil va sog‘lom novdalardan tashkil topadi.
4. Eski tok ko‘chatlari bilan birga chirmashib o‘sadigan begona o‘t o‘simlik va kasalliklar keskin kamayadi.
5. Yangi tokzorlar tuproqning fizik mexanik xossalari yaxshi bo‘lgan yerga o‘tgani uchun tuproqqa ishlov berish oson bo‘ladi.



1-rasm. Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumanida parxishlab ko‘paytirishning yangi usulidan foydalanib yoshartirilgan tokzorlar va ularning hosili.



2-rasm. Yoshartirilgan qatorlari orasidagi eski (qarigan) uzum ko‘chatlari

Keltirilgan malumotlardan ko‘rinib turibdiki, tokni parxishlab ko‘paytirish agrotexnologiyasining o‘ziga xos usulini, ya’ni butun tokzorni yoppasiga parxishlab ko‘paytirish usulini qo‘llash orqali eskirgan va kam hosilli tokzorlarni qayta tiklash mumkin.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. “Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5200-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent, 2021. Manba: <https://lex.uz/docs/-5540999>

2. R.M.Abdullayev, M.M.Mirzayev, U.Y.Nabiyev, Sh.M.Abrorov, U.A.Bekchanov, G‘.G‘.Mahmudov. Uzum yetishtirish va mayiz quritishning zamonaviy texnologiyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2013. – 144 b.

3. Sh.Temurov. Uzumchilik. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2002. – 200 b.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-5

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz